

TARIXIY VA IJODIY ASAR

*Moxichexra Safoyeva*

*Samarqand viloyati, Urgut tumani, Axborot – kutubxona markazi,  
Fondlarni saqlash, to'ldirish va ularga ishlov berish bo'limi xizmat mutaxassisi  
JDPU 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya**

Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub "Boburnoma" asari o'zbek adabiyotidagi dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asardir.

**Kalit so'zlar:** Boburnoma, Vaqoe, Vaqoti Boburiy, Movarunnahr, Xuroson, Hindiston, Eron, Alisher Navoiy, Humoyun.

**“BOBURNOMA”** – mashhur shoh asar haqida so'z yuritilar ekan ulug' shoh va shoir, geograf, tarixchi, buyuk davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur “Boburnoma”, “Boburiya”, “Tuzuki Boburiy”, “Voqoti Boburiy”, “Vaqoe”, Tavorixi Boburiy” asari Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining 1494-1529 yillar oralig'idagi tarixini o'z ichiga oladi.

Bu asarda Amir Temur asos solgan davlat parchalanishiga bog'liq sabablar,

toj-u taxt uchun kurashayotgan shahzodalar o'rtasidagi munosabatlar yoritiladi.



Bobur 12 yoshida otasi Umarshayx Mirzoning tasodifiy vafoti sababli Farg'ona taxtiga o'tirganda taxtni boshqarishda unga buvisi Eson Davlatbegim va onasi Qutlug'nigorxonim yordam beradi. Bobur ota tomonidan temuriylarga, ona tomonidan mo'g'il qavmiga mansubdir. Zahiriddin Muhammad

Bobur bobosi Amir Temur davlatini tiklash uchun kurashdi, lekin bu kurashda u temuriy zoda shahzodalar kuchlarini birlashtira olmadi. Samarqand taxtini bir necha bor saqlab qolishga urindi, ishg'ol etgandan so'ng ham tashlab ketishga majbur bo'ladi, chunki dushman bo'lmish Shayboniyxon Boburdan askarlari ko'pligi jihatdan ancha ustunroq edi. Oqibatda Bobur o'z taxtidan ham ajraladi. Bobur 200—300 navkari bilan Hisor tog'lari orqali Afg'onistonga o'tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G'azni va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo'shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki

intizom o‘rnatadi. Kobulga, umuman Afg‘onistonga Bobur o‘z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu hunar va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. «Bog‘i Shahrora», «Bog‘i Jahonora», «O‘rtabog‘», «Bog‘i vafo» va «Bog‘i Bobur» kabi oromgoxlar tashkil etdi. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal‘asini o‘z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta‘mirlatdi, yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal‘ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug‘iladi. 1506 yil bahorda vafot etgan Qutlug‘ Nigorxonim Mirzo Ulug‘bek shu yerda bunyod ettirgan «Bog‘i Navro‘ziy»ga dafn etiladi. Bobur Afg‘onistonda bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmron sifatida qizg‘in faoliyat ko‘rsatdi, uning manfaatlari yo‘lida odilona va oqilona ish tutdi. Afg‘onistondagi amaliy faoliyatiga ko‘ra, Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig‘i va muzaffar sarkarda sifatida katga obro‘ orttira bordi, mintaqadagi siyosiy hayot e‘tiborli o‘ringa ko‘tarildi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko‘rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig‘iniga maxsus taklif etishi ana shunday yuksak nufuzni ko‘rsatuvchi dalildir. Bobur shu taklif bo‘yicha Hirotga o‘tlanadi. Husayn Boyqaroning to‘satdan vafot etishiga (1506) qaramay, u Hirotga boradi va temuriy hukmdorlar bilan uchrashib muzokaralar o‘tkazadi. Temuriy hukmdorlarning birlashib Shayboniyxon qo‘shinlariga to‘siq qo‘yish rejalari amalga oshmaydi va tez orada birin-ketin mag‘lubiyatga uchrab, saltanatni batamom qo‘ldan chiqaradilar. 1507 yil boshlarida Bobur Hindistonga yurish boshlaydi. Ammo, bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugab, yana poytaxt Kobulga qaytadi. Bobur Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat va urush harakatlarini kuzatib boradi, o‘z qo‘shinlarini doimo shay tutadi. Shayboniyxon Xurosonning yirik markazlarini qo‘lga kiritgach, Eronni zabt etish uchun yurish boshlaydi. Ammo, Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qattiq to‘qnashuvda (1510) yengiladi, o‘zi ham Marvda halok bo‘ladi. Shoh Ismoil Xuroson va Movarounnahrda qo‘shin kiritib shayboniylarga ketma-ket shikast yetkaza boshlaydi. Bobur shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, 1511 yil bahorida Hisorni, yozida Buxoroni, oktyabr boshida esa Samarqandni yana qo‘lga kiritadi. Boburning shia mazhabidagi eroniylar ra‘yi bilan ish tutishi aholida norozilik tug‘diradi. 1512 yil 28 aprelda Ko‘li malik jangida Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylardan yengilgan Bobur Hisor tomon ketadi. 1512 yil kuzida Bobur shoh Ismoil yuborgan Najmi Soniy laqabli lashkarboshi bilan Balxda uchrashib, Amudaryodan kechib o‘tib, avval Huzar (G‘uzor) qal‘asini oladi, so‘ng Qarshiga yurish qiladi, shahar uzoq muddatli qamaldan so‘ng taslim bo‘ladi, shahar himoyachilari qattiq jazolanadi. 1512 yil 24 noyabrda G‘ijduvon jangida Bobur shayboniylardan yana yengilib, Kobulga qaytishga majbur bo‘ladi. Bobur Movarounnahrni egallash ilinjidan uzil-kesil umidini uzadi va butun e‘tiborini Hindistonga qaratadi. 1519 yil bahoriga kelib Bobur Hindistonni zabt etish rejalarini

amalga oshirishga kirishadi va keyingi 5—6 yil davomida bir necha yurishlar uyushtiradi. Nihoyat, 1526 yil aprelda Panipatda asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning yuz ming kishilik qo‘shinini 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi. Oradan ko‘p o‘tmay, ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo‘lgan qismini o‘ziga bo‘ysundiradi. Agrani o‘ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi.

Bu asarda o‘zini tortadigan bir jihat borki, Bobur o‘g‘li Humoyun og‘ir dardga chalinadi. Bu holat muallifi tomonidan shunday tasvirlanadi: -“Muhammad Humoyunga... ani yer va suyi xush yoqmadi. Isitma tutar ekandur... Tabiblar har necha doru darmon berdilar, yaxshi bo‘lmadi. Mir Abulqosimkim, ulug‘ kishi erdi, arzga yetkurdikim, ushmundoq dardlarga darmon budurkim, yaxshi nimarsalardnn tasadduq qilmoq kerak. Toinki Tengri taolo sihat bergay. Mening ko‘nglimga keldikim, Muhammad Humoyunning mendin o‘zga yaxshiroq kimarsasi yo‘q. Men o‘zum tasadduq bo‘layin, xudoy qabul qilsun... Uch qatla boshidin o‘rgulub, dedimkim, men ko‘tardim harne darding bor. O‘shal zamon men noxush bo‘lub yiqildim, ul yengil bo‘ldi. Ul sihat bo‘lub qo‘pti. Men noxush bo‘lub yiqildim. A‘yoni davlat va arkoni mamlakatni chorlab, bay‘ati qo‘llarini Humoyunni(ng) qo‘liga berib, joyinishinligiga va valiahdligiga nasb qildim. Va taxtni anga topshurdum. Va Xoja Xalifa va Qanbar Alibek va Turdibek va Hindubek va o‘zga xaloyiq ham u nasoymida bor erdilar, borisi qabul qilib, band bo‘ldilar”.

Boburning kundan-kunga quvvatsizlanib borishi, rangining vaqti-vaqti bilan sarg‘ayishi, oriqlab ketishi, uyqusizligi haqida ko‘p bayon etiladi: “— Humoyun o‘g‘lim, Bayda menga zahar berganidan beri hech o‘zimga kelolmayman. Qolgan kuchim ijodga yetsa ham xo‘p gap. Endi davlat yukini sen yelkangga olmog‘ing kerak”. Yana: “Mezon o‘tib, qavs oyi kirganda Boburning kasalligi battar og‘irlashdi. Biror joyida yara yoki shish yo‘q, lekin nuqul ichi kuyadi, isitmasi ko‘tarilib, betoqat bo‘ladi, uyqusizlik qiynaydi, rangi kun sayin so‘lib boradi”; “Humoyun kelsa, otasi o‘z xobgohida baland oq to‘shakda terga botib yotibdi. Rangi sap-sariq bo‘lib ketgan...”-deb "Yulduzli tumlar" asarida keltirilgan.

Bu asarda Navoiy haqida ham so‘z yuritib,- “Alisherbek o‘xshashi yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she‘r aytibtirlar, hach kim uncha ko‘p va ho‘p aytgan emas”-deb yozib qoldirgan.

Bundan tashqari, Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson va Hindiston o‘tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasbhunari, urfodatleri, rasrmrusumlari, an‘anaviy tadbirmarosimlari, shuningdek o‘sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma‘lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Kobul, Hirot, Agra kabi yirik shaharviloyatlarning

jug‘rofiyma‘muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, qishloq xo‘jaligi, daryo va suv havzalari, cho‘ladirlari, tog‘sahrolari, bog‘u rog‘lari, tabiati, iqlimi, hayvonot va o‘simliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma‘lumotlar beriladi

«Sayxun suyining shimoli tarafidagi qasabalardan biri Axsidir. Kitoblarda Aksikad bitirlar. Farg‘onada, Andijondin so‘ngra mundin ulug‘roq qasaba yo‘qdur. Andijondin g‘arb sari 9 yig‘och yo‘ldur. Umar Shayx Mirzo muni poytaxt qilib erdi. Sayxun daryosi qo‘rg‘onning ostidin oqar. Qo‘rg‘oni baland jar ustida voqe bo‘libdur. Xandaqining o‘rniga amiyk jarlardur. Farg‘onada (viloyat haqida gap ketmoqda) muncha berk ko‘rgan yo‘qtur».

Bunday misollarni asarda ko‘plab kuzatish mumkin. Ayniqsa, Kobul atrofidagi Gulbahor degan bir joydagi lolalarni sanatganda, u yerdan 34 xil lolani keltiradilar. Mana shu asnoda shoirning quyidagi g‘azali yaratiladi:

Mening ko‘nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur,  
Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmog'i ne imkondur.  
Agar ul qoshi yosiz bog' gashtin orzu qilsam,  
Ko‘zumga o‘qdurur sarv-u ko‘ngulga g'uncha paykondur.  
Bahor-u bog' sayrin ne qilaykim, dilistonimning,  
Yuzi gul, zulfi sunbul, qomati sarvi xiromondur.  
Visoli lazzatidin zavq topmog'liq erur dushvor,  
Firoqi shiddatinda yo‘qsa jon bermaklik osondur.  
Boshidin evrulur armoni birla o‘ldum, ey Bobur,  
Mening na'shimni bori ul pari ko‘yidin aylondur.

Zahiriddin Muhammad Boburning juda mashaqqatli hayoti, uning go‘zal ijodi asarda yuritilgan chuqur mulohazalari, bosgan izlari biz kelajak avlodlarga ibratli namunadir! Albatta bu buyuk Shoh asar va biz mana shunday zotlarning farzandlarimiz!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) Zaxiriddin Muhammad Bobur “BOBURNOMA.
- 2) Primqul Qodirov “YULDUZLI TUNLAR”
- 3) «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2004-yil 7-sonidan olindi.
- 4) <https://tafakkur.net/zahiriddin-muhammad-bobur.haqida>.
- 5) Kitobman.uz.
- 6) O‘zbek adabiyoti tarixi, 3j., T., 1978;
- 7) “Baburid.uz”